



**BADIIY TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI
INTEGRATSIYA VA ISTIQBOL TENDENSIYALARI
MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**



TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TASVIRIY SAN’AT kafedrası

**BADIIY TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, INTEGRATSIYA
VA ISTIQBOL TENDENSIYALARI
Respublika ilmiy-amaliy anjumani**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ,
ИНТЕГРАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
Республиканская научно-практическая конференция**

**CURRENT PROBLEMS OF ART EDUCATION, INTEGRATION AND
PROMISING TRENDS
Republican scientific and practical conference**

28-sentyabr 2023-yil

Toshkent – 2023

118	M.B.Axmedov	Maktabdan tashqari muassasalarda o'quvchilarga yog'och o'ymakorligini o'rgatish mazmuni	527
119	M.Z.Xasanova A.U.Nishanbekova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish	531
120	K.G.Malikov	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini zamonaviy texnologiyalar orqali fan to'garagini o'tishda mazmunini ishlab chiqish va joriy etish	533
121	A.N.Valiyev D.I.Hakimjonova	Muhandislik grafikasi fanlarini integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish	537
122	M.K.Xalimov F.X. Alimov	Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quv doskasining ahamiyati (chizma geometriya va kompyuter grafikasi fani misolida)	540
123	M. Z. Xasanova	Tasviriy san'at asarlarining kompozitsion tuzilishini tahlili, inter'er – fazo va atrof-muhit kompozitsiyasining asosi sifatida	543
124	M.J.Maxmudov	Rassomlar asarlarida kompozitsiyaning ahamiyati	546
125	B.B.Ko'kiyev	Muhandislik grafikasi fanlaridagi ba'zi muammolar	550
126	Б.Т.Маҳмудов	Рассомнинг рангларни психологик идрок этиши	553

kompozitsiya ishlarida ham uzoqdagi ko‘rinish, bilan yaqinda turgan buyumlar, personajlar bir xil bosimda, bir xil tonda ishlanganini ko‘ramiz. Bu esa asar diqqat markazi, asosiy g‘oya va yechimni anglab yetishga to‘sqinlik qiladi yoki boshqacha qilib aytganda, uzoq – yaqindagi ko‘rinish va buyumlarni tasvirlashdagi bir xillik xuddi barcha narsalar bir tekislikda ifodalangandek tushuncha beradi.

Tasviriy san‘at asarlarida Inter’erni tasvirlashga jiddiy e’tibor berilishi va uning ahamiyati haqida fikr yuritganda shuni ham aytish kerakki, har qanday davr voqeasi, xona jihozlarini asar voqeasining qaysi davrga oid ekanligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilishiga yordam beradi.

Bo‘lajak rassom har qanday janrdagi kompozitsiya varianti ustida ish olib borar ekan, rassomlarga xos ijod mashaqqatlarining o‘ziga xos ayrim jihatlarigina tatib ko‘rgandek bo‘ladi. Talabalik yillarida qalamtasvir, rangtasvir, plastik anatomiya, san‘at tarixi va nazariyasi predmetlari bo‘yicha olingan yuzlab o‘quv soatlarida olingan saboqlar bilan chegaralanib qolish ham mumkin emasligi ayon bo‘lib koladi.

Demak, barcha maxsus fanlarda olingan bilim, tajriba, mahorat kompozitsiya yaratishda o‘z natijasida ko‘rsatadi. Kompozitsiya qonuniyatlarini chuqur egallagan talaba o‘z qiziqishi va mehnati asosida o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qila oladi.

Yetuk rassom bo‘lib yetishish uchun nafaqat o‘z ustida tinmasdan ishlashlari zarur ekanliklarini, balki o‘zlarini ushbu kasbga baxshida etishlarini anglab yetadilar. Bunday talabalardan kelajakda ijodkor rassom, jonkuyar pedagog va tasviriy san‘atimizga hurmat, ehtirom bilan qaraydigan oliyjanob kishilar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурахмонов Ф. “Композиция” Низомий номидаги ТДПУ. 2009-й.
2. Молева Н.М. Выдающиеся русские художники-педагоги. М., 1991.
3. Шорохов Е.В. Основы композиции - М., Просвещение, 1976.
4. Беда Г.В. «Основы изобразительной грамоты». Просвещение
5. Б.В. Иогансон. Школа изобразительного искусства – М. 1998.

RASSOMLAR ASARLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI

Maxmudov Mirali Jabbarovich

CHDPU Tasviriy san‘at va dizayn

kafedrası katta o‘qituvchisi.

m.maxmudov@cspi.uz +998917779043

Annotatsiya

Ushbu maqola tasviriy san‘at sohasida ijod qilayotgan barcha pedagog rassomlar uchun mo‘ljallangan. Maqolada mashhur rassomlar tomonidan yaratilgan ijodiy asarlarda kompozitsiyaning ahamiyati va mavzu asosida kompozitsiya ishlash jarayonlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar

Kompozitsiya, eskiz, tasviriy san‘at, etyud, rassom, kompozitsiya markazi.

Аннотация

Эта статья предназначена для всех художников-педагогов, работающих в области изобразительного искусства. В статье кратко рассматривается значение композиции в творческих произведениях известных художников и процессы работы над композицией на основе темы.

Ключевые слова

Композиция, эскиз, изобразительное искусство, этюд, художник, композиционный центр.

Annotation

This article is intended for all pedagogical artists who are creating in the field of Fine Arts. The article summarizes the importance of composition in creative works by famous artists and the processes of composition work based on the topic.

Keywords

Composition, sketch, Fine Arts, etyud, artist, composition Center.

San'at asarlarini chuqur tushunish, fikrlash undan lazzatlanish, qoniqish hosil qilish – rassomning yaratgan asaridagi mahoratiga bog'liq.

Har bir ijodkor rassom atrofidagi go'zallikni ko'ra bilishi, his qilishi, zavqlana olishi va uni yaratayotgan ijodiy asarida ko'rsata olishida kompozitsiyaning ahamiyati juda katta.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, albatta bu borada samarali ijod qilgan yetuk musavvirlar asarlariga murojaat qilamiz. Bunday musavvirlar xoh manzara, xoh boshqa janrda asar yaratmasin ularning ijodida kompozitsion yechim nechog'liq to'g'ri topilganligining guvohi bo'lamiz. Shunday mashhur rassomlardan biri O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyevning ba'zi asarlarida kompozitsiya masalalari qanday hal qilinganligini ko'rib chiqamiz.

XX asrning 50 yillarida O'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboyev karvonboshi bo'ldi. Qishlok xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi.

1950 yilda "O'zbekistonda bahor", "Paxtani sug'orish" asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Xayotning obyektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik holatda yuzaga kelishi "Ona o'lka" asarida (1951 y.) o'z aksini topdi. Kompozitsiya yechimini - diorama usulida yechish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa holat cho'lni ochishga bag'ishlangan "Taxtatosh" va "Issiq ko'l" nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. "Qayroqqum GES tongi (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Qarshimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilish panoramasi, biryuza rangli "Qayroqqum" dengizi, kompozitsiya markazida

esa gidrostansiya qurilishi tasvirlangan. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqumda haqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tusalardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi qaynok xayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.

Kompozitsiya masalari haqida gapirganda mashhur rus rassomi I.K.Ayvazovskiy yaratgan rangtasvir asarlarini ham chetlab o'tish qiyin. XIX asrda yashab o'tgan bu rassom asosan dengiz manzaralari bilan bog'liq shunday ajoyib kompozitsiyalar yaratdiki, ularni ko'rgan tasviriy san'at ixlosmandi bu ijodkor mahoratiga so'zsiz tan beradi.

Buning boisi nimada? Mana misol uchun uning —To'qqizinchi val kartinasini ko'rib chiqaylik. Cheksiz dengizda birdaniga boshlangan to'fon kemani halokatga keltirgan. Shiddatli to'lqinlar orasida jon saqlash uchun intilayotgan kishilar bu bo'ron bilan kurashmoqda. Ularning talvasali harakatlari va ovozlari qudratli to'lqinlar orasida ilojisiz va ojizdek ko'rinadi. Rassom bu kartinasida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning bir ko'rinishi misolida tabiatning qudratli kuchini, inson zotining har doim u bilan hisoblashishi kerakligini ko'rsatadi go'yo. Eng asosiysi inson hayotining naqadar qimmatligi, har qanday vaziyatda ham yashashga bo'lgan intilish hech qachon so'nmasligini ajoyib bo'yoqlarda ko'rsatadi. Rassomning mahorati shundaki, u o'z oldiga juda murakkab bo'lgan kompozitsiya yaratishni maqsad qilib qo'ygan va uning uddasidan chiqa olgan. Asar tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, dovuldan chayqalayotgan dengiz to'lqinlari orasida ko'rinayotgan kema uzoqroqda, ya'ni xiraroq ranglarda tasvirlanib, qayiq va sollarda omon qolishga intilayotgan dengizchilar esa yaqinroq planlarda tasvirlangan. Mahobatli to'lqinlar quyosh nurlarida xilma-xil tovlanib, uning zarralari yaltirab ko'rinadi. Buyuk rassom ana shu murakkab ranglar jamlanmalarini shu qadar ustalik bilan topganki, undagi ranglar koloriti, ularning yorqin jilosi kishini beixtiyor o'ziga maftun qiladi.

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeaning eng xususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi.

Inson yashab turgan muhitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari halq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I. Repinning "Yangi kuyovni kuzatish", Ye. Makovskiyning "Xiyobonda", V. Perovinning "Uchovlon" va boshqa sur'atlari o'ziga xos misol bo'la oladi. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V.Laktionovning "Frontdan xat", F.Reshetnikovning "Yana ikkimi", "Ta'tilga keldi" asarlarida Vatanga muhabbat, maktab hayoti bilan bog'lik g'oyalar tasvirlangan. Maishiy janrda ham kompozitsiyaning talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyaning ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq,

fazoviy uzoqlashish, shuningdek, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug‘ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to‘g‘ri foydalana bilish kerak. Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interyer) yoki ochiq havoda bo‘lsada, asosiy o‘rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi. Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo‘lgan mavzuga oid ko‘plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo‘ladi.

Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishxonada odamlarning mehnat qilish yoki dam olish jarayonini tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o‘rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda xayoldan va tasavvur qilib ishlashni, mashq qilishni odatga aylantirish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki rassom mavzuli kompozitiya ishlash jarayonida eskizlar ishlashi va bajarilgan eskizlar asosida yakuniy asar yaratishi va yaratgan ijodiy asaridan lazzatlanishi, zavqlana olishi, qalbidagilarni tomoshabinga yetkazib bera olishida albatta kompozitsiyaning o‘rni beqiyosdir¹³¹.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmonov G‘. Kompozitsiya o‘quv qo‘llanma. T.2007 y
2. Ismatov, U. S. (2020). Tasviriyy san’at darslarida grafik materiallarda ishlashga o‘rgatish (guash bo‘yoq ‘i misolida). *Academic research in educational sciences*, (2), 355-360.
3. Baymetov, B. B., Sobirov, S. T., & Ismatov, U. S. (2019). PROBLEMS OF PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL TRAINING OF FINE ART TEACHERS. *Bulletin of Science*, 1(7), 63-66.
4. Ismatov, U. S. TEACHING TO WORK ON GRAPHIC MATERIALS IN FINE ARTS CLASSES (ON THE EXAMPLE OF GUASH PAINT). *THE JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 1, 2181-138.
5. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). MUHANDISLIK GRAFIKASIDA MULTIMEDIYANING TUTGAN O‘RNI. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.
6. Baymetov, B. B. Ulfat Shuxratovich Ismatov PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARINI BOSH NAMUNASINI TASVIRLASHGA O‘RGATISH ORQALI TEXNIK MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH *Science and education journal*. 2020/8.
7. Махмудов М. Ж. (2020). Талабаларнинг манзара ишлаш жараёнидаги баъзи муаммолар. *Academic research in educational sciences*, (2), 361-369.

¹³¹ A.Egamov, Kompozitsiya asoslari. 5-9 sinflar, san’at jurnali nashriyoti, Toshkent- 2005